

TEST tasviriy san'at

1 – variant

1. Guashning akvareldan farqi nimada?

- a. Guash bo'yog'i birining ustiga ikkinchisi surtilganda uning tagidagi bo'yoq rangi ko'rinmaydi.
b. Guash akvareiga nisbatan quyuqroq ishlatiladi.
c. h.j.t.

2. Axromatik ranglar qatorini aniqlang?

- a. Oq, kulrang, qora b. Sariq, yashil, ko'k. c. sariq, qizil, oq.

3. Naqshda bezak gullarining takrorlanib yoki almashinib kelishi nima deyiladi?

- a. kontras. b. ritm. c. relyef.

4. Palak, so'zana, choyshab, zardevor kabi kashtachilik buyumlarini bezatishda qaysi shakldagi naqshlardan foydalaniladi?

- a. to'rtburchak. b. doira c. oval.

5. Susambil ertagi qahramonlarini belgilang?

- a. Laylak, ho'kiz, ari. b. Eshak, ho'kiz, ho'roz, ari. c. Sher, ho'kiz, tulki.

6. Tasvirlarni bir-biriga nisbatan ma'lum tartibda joylashtirish nima deb ataladi?

- a. Kompozitsiya. b. relyef. c. simmetriya.

7. Iliq ranglar qatorini belgilang.

- a. Sariq, pushti, zarg'aldoq, qizil. b. Sariq, yashil, ko'k, sapsar. c. Oq, kulrang, qora.

8. Sovuq ranglar qatorini belgilang.

- a. oq, kulrang, qora b. ko'k, zangori, binafsha, moviy, yashil c. sariq, pushti, qizil

9. Odamlar hayotidagi voqealarni tasvirlash nima deb ataladi?

- a. manzara janri b. naturmort janri c. maishiy janr

10. Qish fasli manzarasini tasvirlashda asosan qanday ranglardan foydalaniladi?

- a. iliq ranglardan b. sovuq ranglardan c. aralash

11. Odam qiyofasi tasvirlangan rasm nima deb ataladi?

12. Suvda eruvchi bo'yoq nima?

13. Borliqdagi ko'rinishlar aks etgan rasm nima deb ataladi?

14. Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying.

....- tasvir o'lchamlarining ikki tomoni bir-biriga mosligini bildiradi.

15. Jonsiz narsalar tasvirlangan rasm nima deb ataladi?

TEST tasviriyl san'at

2-variant

1. Tabiiy materiallar, rang-barang qog'oz va mato bo'laklarini qog'ozga yopishtirish yo'li bilan hosil qilingan tasvir nima deb ataladi?

a. gerbariy b. aplikatsiya c. manzara

2. Kulolchilik buyumlari qatorini belgilang.

a. lagan, kosa, ko'za b. oftoba, kirpich c. choygum, choynak, mis tog'ora

3. Portret nima?

a. odam qiyofasi tasvirlangan rasm b. jonsiz narsalar tasviri c. ertak qahramonlari rasmi.

4. Guashning akvareldan farqi nimada?

a. Guash bo'yog'l birining ustiga ikkinchisi surtilganda uning tagidagi bo'yoq rangi ko'rinmaydi.

b. Guash akvareiga nisbatan quyuoqroq ishlatiladi.

c. h.j.t.

5. Axromatik ranglar qatorini aniqlang?

a. Oq, kulrang, qora b. Sariq, yashil, ko'k. c. sariq, qizil, oq.

6. Naqshda bezak gullarining takrorlanib yoki almashinib kelishi nima deyiladi?

a. kontras. b. ritm. c. relyef.

7. Palak, so'zana, choyshab, zardevor kabi kashtachilik buyumlarini bezatishda qaysi shakldagi naqshlardan foydalaniladi?

a. to'rtburchak. b. doira c. oval.

8. Susambil ertagi qahramonlarini belgilang?

a. Laylak, ho'kiz, ari. b. Eshak, ho'kiz, ho'roz, ari. c. Sher, ho'kiz, tulki.

9. Iliq ranglar qatorini belgilang.

a. Sariq, pushti, zarg'aldoq, qizil. b. Sariq, yashil, ko'k, sapsar. c. Oq, kulrang, qora.

10. Sovuq ranglar qatorini belgilang.

a. oq, kulrang, qora b. ko'k, zangori, binafsha, moviy, yashil c. sariq, pushti, qizil

11. Odam qiyofasi tasvirlangan rasm nima deb ataladi?

12. Suvda eruvchi bo'yoq nima?

13. Kuz faslini tasvirlash qaysi janrga mansub?

14. Odam yuzi simmetriyaga misol bo'la oladimi?

15. Bino va inshootlarni loyihalash va qurish san'ati.

Sana: 12.11.2015

Fan: Alifbe

Sinf: 1- sinf

Darsning mavzusi. Sirkda

Darsning maqsadi.

Ta'limiy maqsad: S tovushi Ss harflari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, bosh harfda yoziladigan so'zlar va matnni o'qish.

Tarbiyaviy maqsad: Mavzu mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirishda turli usullardan foydalanib, yakka jamoa bo'lib darsga jalb qilish orqali tezkorlik fazilatlarini tarbiyalab borish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda kitob o'qishga havas uyg'otish, ularning nutqini sirk, masal so'zlari bilan boyitish, o'quvchilar faolligini yo'l harakati qoidalariga haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Dars turi: mustahkamlovchi.

Dars metodi: ko'rgazmali, zanjir usuli, didaktik o'yin, test

Dars jihozi: darslik, yo'l qoidalariga doir rasmlar, sirk binosi rasmi, rag'bat kartochkalari

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilish.

O'qituvchi: -Bugungi darsimizning shiori "Odobli bola elga manzur".

-Odobli bolalar qanday fazilatlarga ega bo'ladi? _____

O'quvchilar: -Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'ladi.

- Tartib-qoidalariga amal qiladi.
- Jonivorlarga yaxshi munosabatda bo'ladi.
- Yolg'on gapirmaydi.
- Jamoat joylarida o'zini munosib tuta oladi.
- Yaxshi xulq va bilimga ega bo'ladi.

O'qituvchi.-Odobni kimdan o'rganamiz?

- Odobni beodobdan o'rganamiz.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, bugun biz sizlar bilan o'tirgan joyimizda sayohatga chiqamiz. Buning uchun sizlar yo'l qoidalarini juda yaxshi bilishingiz kerak. Yo'ldagi xavf-xatarning oldini olish va harakatlanish qulay bo'lishi uchun guruhlariga bo'linib olamiz.

1-guruh: Bilimdonlar

2-guruh: Biyronlar

3-guruh: Bilag'onlar

(Yo'l qoidalariga doir rasmlar)

O'qituvchi: - Biz yo'ldagi to'siqlardan o'tib sirkka boramiz. U yerda biz kimlarni va qanday hayvonlarni uchratar ekanmiz? Qani yo'lga otlandik. Bizning qarshimizdan yer osti yo'lining belgisi chiqdi. Yer osti yo'lga tushish uchun biz so'zlarni o'qib, uycha hosil qilishimiz kerak.

"Uycha" didaktik o'yini _____ -

("Uycha" o'yini uchun oldindan 3 guruhga moslab shakllar kesib ularga turli so'zlar yozib qo'yilgan.)

3 guruhdan 5-6 nafardan o'quvchi chiqib, so'zlarni o'qiydilar va uycha hosil qiladilar.

O'qituvchi: Barakalla, siz birinchi to'siqdan o'tdingiz. Ana endi biz yer osti yo'lidan chiqish uchun darslikdagi bo'g'in va so'zlarni o'qishimiz kerak bo'ladi. _____

Darslik bilan ishlash: Bo'g'inlar jadvali va so'zlar o'qiladi.

O'qituvchi: - Yer osti yo'lidan ham chiqib oldik. Yo'lda davom etamiz. Yo'limizda chorraha, chorrahadan o'tayotganda avval chapga qarab, yo'lning o'rtasiga yetgach, o'ngga qarab transport yo'qligiga ishonch hosil qilgandan so'ng o'tish mumkin. Corrahadan otish uchun biz sizlar bilan rasm asosida suhbatlashamiz va "Omon bo'lsin" matnini o'qiymiz.

O'qituvchi: - Rasmda kimlarni ko'rayapsiz?

O'quvchilar: - Bobo hamda uning nabirasini.

O'qituvchi: - Ular nima haqida suhbatlashayotgan ekanlar?

O'quvchilar: - Ona yurt haqida suhbatlashayaptilar.

Matnni "Zanjir" usulida o'qish va rasm bilan bog'lanishni aniqlash.

O'qituvchi: - Siz ham bobo va buvilaringiz holidan xabar olib, ular bilan maslahatlashib turasizmi?

O'quvchilar: - Ha. _____

O'qituvchi: - Muhtaram prezidentimiz ham bu yilni bejiz "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilmaganlar. Zero, qarisi bor uyning parisi bor. Ularning holidan xabar olish bizning burchimizdir. Yurtiga, eliga **sadoqatli** farzandlar bo'lib yetishishimizda bobo va buvilarimizning xizmatlari katta. Ularning ibratli so'zlari va pand-nasihatlariga amal qilgan o'g'il-qizlar el- yurt oldidagi burch va **mas'uliyatini** his qilib voyaga yetadilar.

Dam olish daqiqasi:

Suvda suzmoq qanday soz,

Qishmi, bahor yoki yoz.

Sportchilar uchun hech

Fasl qilmas e'tiroz.

O'qituvchi: - Siz uchinchi to'siqdan ham o'tdingiz. Endi darsimizni navbatdagi qismiga o'tishimiz mumkin.

III.Yangi mavzu ustida ishlash:

O'qituvchi: -. Qarshimizda piyodalar yo'lkasi. Siz yo'lda koptok o'ynayotgan bolalarni ko'rdingiz. Koptok mashina yo'lga o'tib ketdi, bolalar hayoti xavf ostida

- Yo'lda koptok o'ynash mumkinmi? _____ ----

-Mumkin emas. Chunki o'zimizning hayotimizga havf slogan bo'lamiz.

-O'ylaymanki sizlar bunday xatoliklarga yo'l qo'ymaysiz.

O'qituvchi: -Bolajonlar siz koptok o'ynayotgan bolalarga yordam berishingiz kerak. Buning uchun birgalikda yangi so'zlarni o'qiymiz.

Xat taxtaga yozilgan yangi so'zlarni bo'g'inlab o'qish o'rgatiladi. So'zlar o'qib beriladi.

Lug'at ishi: masal – odamlar fe'l-atvorini, hayvonlar timsoli orqali aks ettiradigan qisqa hikoya.

Biz sizlar bilan sirk binosiga yetib keldik. Qani sirkda biz kimlarni va qanday hayvonlarni uchratar ekanmiz? Rasm asosida savol- javob o'tkaziladi. _____

-Siz sirkka borganmisiz? _____

-Sirkda nimalarni ko'rgansiz?

-Biz yashayotgan shaharda sirk binosi bormi?

_Sirk binosi qaysi sahada joylasgan?

"Sirkda" matni o'qib beriladi.

O'qituvchi: Kim sirkka kirmoqchi bo'lsa, matnni o'qib beradi.

O'quvchilar zanjir usulida birin ketin navbati bilan matnni o'qib beradilar.

O'qiganlarini so'zlab beradilar.

(Aniq va ravon o'qigan o'quvchilarga rag'bat sifatida sirk chiptasi beriladi)

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash

-Bugun sizlar bilan qanday mavzu haqida sunbatlashdik?

-Sirkda mavzusida suhbatlashdik.

Hozir bugungi mavzu bo'yica olgan bilimlaringizni test savollari orqali tekshirib ko'ramiz.

Test

1.Dugonalar qayerga bordilar?

- A) Hayvonot bog'iga
- B) Sirkka
- D) Mehmonga

2.Sirkda qanday hayvonlar bor ekan?

- A) Quyon, tulki, bo'ri
- B) Arslon, maymun,
- D) Sichqon, mushuk, ayiq

3. Yovvoyi hayvonlar yozilgan qatorni belgilang

- A) Sigir, qo'y, tulki
- B) Tuya, buzoq, echki
- D) Yo'lbars, sher, arslon

4. Matn nima?

- A) Mazmun jihatdan bog'langan gaplar
- B) So'zlar
- D) Bo,g'nlar

V. Rag'batlantirish . Dars so'ngida guruhlar to'plagan chiptalari sanaladi, faol qatnashgan o'quvchilar va guruhlar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa. "Sirkda" matnini o'qib, so'zlash. Yangi so'larni yod olish.

Chirchiq shahar XTMFMT va TEBga
qarashli 11- sonli umumta'lim maktabi
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
Rustamjonova S.Xning "Mening jonajon
kitobim"
mavzusida yozgan ishlanmasi

Mavzu.Mening jonajon kitobim!

Maqsad: mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga kitob turlari haqida ma'lumot berish, bir kitob nashrga tayyorlanib o'quvchilar qo'liga yetib kelguncha ketadigan mehnatni qadrlash, kitoblarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatish, kitob mutolaasi kishiga ezgu fazilatlarning shakllanishida eng yaqin yordamchi ekanini tushuntirish.

Metodlar: suhbat, savol-javob, "Davom ettir" o'yini, klaster.

Jihozlar: kompyuter, kitob turlari, ertak qahramonlari rasmi.

Mashg'ulotning borishi

Salomlashuv.

O'quvchilar

**Osmoni musaffo O'zbekistonim,
Dourug'laring taralgan butun dunyoga.
Sendirsan eng ulug', go'zal makonim,
Go'zalsan, tengi yo'q ona diyorim.**

1-o'quvchi

**Yetti yoshga to'ldim men,
Maktab sari keldim men.
Salom maktab, jon maktab,
Quchog'ingga ol maktab.**

3-o'quvchi

**Erkalik va sho'xlikni
Tashlab keldim bog'chaga.
Barcha o'yinchog'imni
Terib qo'ydim tokchaga.**

O'qituvchi

Bolalar, siz har kuni uyda, maktabda, do'konlarda, kutubxonalarda turfa xil kitoblarni ko'rasiz. Lekin nima uchun "Kitob- insonning eng yaqin do'sti, hamrohi" deyishadi, bu haqda hech o'ylab ko'rganmisiz?

Kitob- insonning yaqin do'sti, suhbatdoshi, sirdoshi. U kishining dunyoqarashi, so'z boyligini oshiradi. Amerikalik olim,yozuvchi Nil Geyman olib brogan tadqiqot natjasi shuni ko'rsatadiki, kitob mutolaa qilmaydigan bolalar kelajakda bezori bo'lib ulg'ayishi ehtimoli yuqori ekan. Shu bilan birga, kitob o'qish odamlarni - faqat o'z xohish istaklari va manfaatlarini o'ylashdan voz kechib, umumiy maqsad yo'lida birlashishga undaydi.

Kitob bizga nima uchun kerak?

3-o'quvchi: - Chunki biz kitoblar orqali ilm o'rganamiz. Maktabda va yuda darsliklarimizdan ko'p qiziqarli narsalarni bilib olamiz.

2-o'quvchi

**O'zim yaxshi bolaman,
Eng a'lochi bo'laman,
Kitob o'qib zehnimni
Oshirmoqni xohlayman.**

4-o'quvchi

**Odob va tarbiyani
Oldim ota-onamdan.
Endi bilim koniga
Yuray shu ostonadan.**

4-o'quvchi:-Kichkinaligimda uyqudan oldin buvim menga ertak kitoblar o'qib berardilar...

5-o'quvchi:-Men esa undagi suratlarni tomosha qilib o'tirishni yaxshi ko'rardim.

O'qituvchi:- Yaxshi. Bilasizlarmi, birgina kitob yozilishi uchun kishilar yillab izlanishadi. Keyin u kitoblar qo'lingizga yetib kelgunga qadar qanchadan- qancha insonlarning mehnati singadi.

6-o'quvchi:

Men kitobman-kitobman,
Nurga to'la oftobman.
Agar meni yertsalar,
Biling shunda- betobman.

A'lochiga ko'p zorman,
Beodobga ko'p xorman.
O'rganmoqchi bo'lsalar,
Bilimlarga bisyorman.

7-o'quvchi

Tanishaylik men kitob,
Asil ilmlarga kon.
Boylik beray behisob,
Bo'lsang agar qadrdon.

8-o'quvchi: Lekin yirtib, burdalab,
Kamaytirma varag'im.
Sendan yana bir talab,
Iflos qilma hech yog'im.

9-o'quvchi: Kitob o'zi birolam,
Vatan ichida vatan.
Kitobni ko'p o'qigan
Dono bo'lar hammadan.

10-o'quvchi:

Kitobimda qo'zichoq
Dikr-dikr chopadi.
Quvsam, qochib o'sha choq
Onasini topadi.

11-o'quvchi: Har so'zni kitobimdan
Lola kabi teraman.
Ustoz- muallimlarga
Sovg'a qilib beraman.

O'qituvchi:-Hozir sizlarga kitob o'qish odob- qoidalarini bilan tanshtiraman.

- 1.Kitobni talay olish va zarurini o'qish.
- 2.Kitobni mustaqil o'qishni bilish.
- 3.O'qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarish.
4. Uning kerakli joylarini yon daftariga ko'chirib, uni esda saqlash.
5. Kitobni yaroqsiz holga keltirmaslik uchun undan to'g'ri foydalanishni bilish.


6.Kitobni shoshmasdan o'ylab, diqqat- e'tibor bilan o'qish malakalariga ega bo'lish.

7.Qayta-qayta o'qish-kitobxonlik ko'nikmasini orttirish.

Ajdo dlarimizdan o'rnak olib, bo'sh vaqtingizni kitob o'qishga sarflashga harakat qiling, kitobni seving. Kitob o'qish qoidalariga rioya qiling. Sizning hozirgi mehnatingiz kitob o'qishdir.

O'qituvchi:-Bolajonlar , kitoblarni qanday turlarini bilasiz? Hozir javoblaringizni "Klaster" usulidan foydalangan holda yozib berishingiz kerak.

Rasmi kitob



O'qituvchi:- hamma zamonlarda ham kitobga ehtirom bilan qarashgan,unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishgan. Ocharchilik va urush yillarida kishilar nochor ahvolda qolganlarida ham, uyda bor bisotlarini sotishgan, biroq kitoblarni bebaho boylik sifatida asrashgan.

12-o'quvchi:- Ustoz, hatto yeguliklari bo'lmaganda ham, kitoblarni yegulikka almashishmaganmi?!

O'qituvchi:- Yo'q. Boisi kitob kishini bemehr, beshafqat bo'lishdan asraydi, ezgu fazilatlarni tarbiyalaydi. Bobolarimiz shu narsani bilganlari uchun ham, kitoblarni juda qadrlashgan.

13-o'quvchi:

Kitobimni qancha sevsam oz bo'lur,

Kitob desam ko'nglim bahor yoz bo'lur.

Kitobimni desam agar ko'klam- yoz,

Ko'klam-yozning umri lekin undan oz.

O'qituvchi:- Bolajonlar, sizlar qaysi buyuk bobokalonlarimizni bilasiz?

14-o'quvchi:- Alisher Navoiy, Z.M. Bobur, Amir Temur, Abu Ali ibn Sino.

Amir Temur bobomiz

Mardu jasur bobomiz

Jangu jadallar kezgan

Ulug' davlat yurt tuzgan.

O'qituvchi:- Sizning eng sevimli kitobingiz qaysi?
O'quvchilar javoblari eshitiladi va muhokama qilinadi.

O'quvchilar tomonidan "Bo'g'irsoq" ertak qahramonlarining rasmlaridan foydalangan holda sahna ko'rinishi ko'rsatiladi.

Kitob haqida maqollar:

Kitobdan yaxshi do'st yo'q.

Kitob- bilim bulog'i

O'quvchining o'rtog'i.

Kitob- bilim manbayi.

Kitobsiz aql- qanotsiz qush.

O'qituvchi:- Bolajonlar, kitob o'qish uchun mehnat sarflasangiz o'qimishli kishi, hatta hatto kata olim bo'lib, O'zbekistonning kelajagi uchun yangliklar yaratasiz.

Barcha o'quvchilar:

Ey, kitobim oftobim,

Seni toza saqlaymiz.

A'lo o'qib hamisha,

Hurmatingni saqlaymiz.

Mavzu: Mustahkamlash uchun mashqlar.

Ta'limiy maqsad: Ikki xonali sonlar haqida egallagan bilimlarni mustahkamlash, 20 gacha bo'lgan sonlar ustida amallar bajarish.

Tarbiyaviy maqsad: Matematika fani orqali hayotni to'g'ri tasavvur eta olish, kasb-hunarga mehr ko'zi bilan qarashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: 10 dan 20 gacha bo'lgan sonlar tarkibini bilish, xona birliklariga ajratish malakasini rivojlantirish, matematik nutqni o'stirish.

Dars turi: Mustahkamlovchi.

Dars usuli: aralash, savol-javob, o'yin.

Dars jihozi: Darslik, magnit doska, tarqatma, rasmlar.

Darsning borishi

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

O'qituvchi: Hozir qanday dars?

O'quvchilar: Matematika darsi,
Hisob-kitob qilamiz.
Raqamlarning sirini,
Puxta bilib olamiz.

O'qituvchi: Bugun sinfda kim navbatchi?

Navbatchi axboroti: Bugun sinfda men navbatchiman. Bugun 2016-yilning 10-fevrali, haftaning 3-kuni chorshanba.

O'qituvchi: Yurtboshimiz I.A. Karimov 2016-yilni qanday nom bilan atadilar?

O'quvchilar: Sog'lom ona va sog'lom bola yili.

O'qituvchi: Shoirlarimiz salomatlik haqida nimalar deganlar?

O'quvchilar: 1. Xom suvni ichma, sog'liqdan kechma.
2. Badantarbiya- kuch etar hadya.
3. Yurmoqlik iflos, kasalga asos.
4. Kim harakatda- sog'lom albatta.

O'qituvchi: Kuni kecha bobokalonlarimizdan kimning tavallud kunini nishonladik?

O'quvchilar: 9-fevral-Alisher Navoiy bobomizning tavallud topgan kunlarini nishonladik.

O'qituvchi: A.Navoiyning qanday hikmatli so'zlarini bilasiz?

O'quvchilar: Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

1. Uy vazifasini tekshirish. 103 -betdagi 13-misol.
 $15-5=10$ $10+4=14$
 $10+6=16$ $19-9=10$
 $18-8=10$ $10+7=17$
 $10+9=19$ $10+3=13$
2. Tarqatmalar yordamida o'quvchilar bilimini tekshirish. (Sonlarni xona birliklarini o'qib bering.)
3. "Issiq kartoshka" o'yini

III. Yangi mavzu bayoni: Bugungi darslikdagi misol va masalalarni yechish uchun "Qurilishga sayohat" didaktik o'yinidan foydalaniladi.

U quyidagicha bajariladi: magnit doskaga uyning poydevoridan tortib to uy to'liq tayyor bo'lgunga qadar bo'lgan jarayonni aks ettiruvchi tasvir yopishtirib qo'yiladi. Darslikning 104 - betidagi 1-misol doskada og'zaki va yozma ravishda bajariladi.

$10+10$	$18-8$	$14+1$	$12+1$
$20-10$	$10+9$	$15-5$	$12-2$

Ana bolajonlar uyimizning poydevorini ham qurib bo'ldik. Oxirgi misolni ishlagan o'quvchi uy poydevorini magnit doskaga yopishtiradi.

2 -topshiriqdagi sonlarni bir-biri bilan taqqoslaymiz.

$17<19$	$20>18$	$16=16$	$15>14$
---------	---------	---------	---------

O'qituvchi: Demak, uyimizning devori ham bitdi. (Bir o'quvchi chiqib poydevor ustiga devorni qo'yadi.)

Uyning tomini yopish uchun 3-misolda ikki xonali sonlarning tarkibi og'zaki so'raladi. Ana, bolajonlar uyimizning tomini ham yopib oldik. Endi dam olish daqiqasini o'tkazib olamiz, so'ng davom etamiz.

Bir, ikki, uch-bu hisob,
Raqamlarni o'ylab top.
Hisob darsi- aql darsi
Savolga top to'g'ri javob.

4-topshiriqdagi rasm asosida savollarga javob beriladi. (Ekkranda qishda maydonda qor o'ynayotgan bolalar tasvirlangan rasm ko'rsatiladi.)

Rasmga qarab javob bering. Hovlida hammasi bo'lib nechta bola o'ynamoqda? O'g'il bolalar qizlardan nechta ko'p? Qizlar o'g'il bolalardan nechta kam?

IV. Mustahkamlash. Matematik diktant:

- a. 10 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni tartib bilan yozib chiqing.
- b. 18 va 8 ning ayirmasini yozing.
- d. 10 va 9 ning yig'indisini yozing.

Ana endi biz sizlar bilan 5-bosqichni ham bosib o'tdik. Uyimiz tayyor bo'ldi. Ularning hammasini yaxshi bajardik, endi quyidagi savollarga javob bering:

- Biz qayerga sayohat qildik?
- Biz qurilishga sayohat qildik.
- Quruvchilarning mehnatini kim izohlab beradi?
- Quruvchilarning mehnati beqiyos, davlatimiz kundan-kunga yashnab bormoqda.
- Kim quruvchi bo'lmoqchi? Kimning otasi yoki qarindoshi quruvchi bo'lib ishlaydi?
- Qurilishda qanday materiallar ishlatilar ekan?

V. Rag'batlantirish va baholash.

Faol o'quvchilarni rag'batlantirib, baholanadi.

VI. Uy ishi. 104-betdagi 5-misol.